



YASHIL IQTISODIYOTNING MINTAQALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

Mamadiyorov Olimjon

TDIU dotsenti

Sheronboyev Asadbek

TDIU MI-61 guruh talabasi

ANNOTATSIYA. *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni va uning mintaqalarning barqaror rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakatda ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga qaratilgan davlat siyosati hamda strategik dasturlar tahlil etilgan. Statistik ma'lumotlar asosida Jizzax, Xorazm va Sirdaryo viloyatlarida davlat sektori investitsiyalarining, Buxoro, Toshkent va Samarqand viloyatlarida esa nodavlat sektor faolligining yuqoriligi aniqlangan. Natijalar yashil iqtisodiyotning mamlakatda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.*

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik infratuzilma, investitsiya, mintaqaviy rivojlanish, energiya samaradorligi.*

REGIONS OF THE GREEN ECONOMY IMPACT ON DEVELOPMENT

Mamadiyorov Olimjon

TDIU Associate Professor

Sheronboyev Asadbek

TDIU MI-61 Group student

Annotation *This article analyzes the process of transition to the green economy in the Republic of Uzbekistan and its impact on the sustainable development of Regions. The study analyzed public policies and strategic programs aimed at harmonizing environmental sustainability, energy efficiency and economic growth in the country. On the basis of Statistics, high levels of public sector investment were found in Jizzakh, Khorezm and Syrdarya regions, and non-governmental sector activity in Bukhara, Tashkent and Samarkand regions. The results confirm the importance of the green economy in ensuring economic, environmental and social stability in the country.*

Keywords: *green economy, sustainable development, renewable energy, environmental infrastructure, investment, regional development, energy efficiency.*



KIRISH

So'nggi yillarda iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirish global darajada dolzarb masalaga aylandi. Shu munosabat bilan yashil iqtisodiyot tushunchasi zamonaviy rivojlanishning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Yashil iqtisodiyot - bu iqtisodiy yuksalish jarayonida atrof-muhitga zarar yetkasmadan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan tizimdir. Ushbu yondashuv iqtisodiy faoliyatni ekologik mezonlar bilan uyg'unlashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va shu bilan birga tabiat boyliklarini saqlab qolishni maqsad qiladi. Boshqacha aytganda, yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sish va ekologik xavfsizlikni bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishlar sifatida ko'radi.

Adabiyotlar sharhi

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining mohiyatini yoritib berishda aniq yoki umumiy qabul qilingan yondashuvlarning mavjud bo'lmaganligi bois “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi hali hamon shakllanish bosqichida ekanligini anglatadi. Ammo ushbu terminning kelib chiqish tarixiga qisqacha nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

“Yashil iqtisodiyot” atamasi birinchi marta 1989-yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun tayyorlangan “Blueprint for a Green Economy” (Yashil Iqtisodiyot uchun Qoraqalam Reja”) hisobotida atrof-muhit iqtisodchilari tomonidan kiritilgan.

2010-yilda yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi BMT Global Vazirlar Atrof-muhit Forumida xalqaro `tibor qozondi va uning global muammolarni hal qilishdagi imkoniyati tan olindi. BMT yashil iqtisodiyot kontsepsiyasini quyidagicha ta'riflaydi: “Yashil iqtisodiyot - bu kam uglerodli, resurslardan samarali foydalanuvchi va ijtimoiy jihatdan inklyuziv iqtisodiyotdir.”

BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar yashil iqtisodiyotga o'tishni barqaror rivojlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'radi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadik, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshmoqda va bu jarayon energetika hamda ekologik infratuzilma sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan biri bo'lgan quyosh energiyasi bo'yicha ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi 2021-yildagi 49.5 mln kVt.soatdan 2024-yilda 2060.6 mln kVt.soatga yetgan bo'lib, bu 40 baravarga yaqin o'sishni anglatadi. Mazkur o'sish mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning samaradorligini tasdiqlaydi.

Davlat-nodavlat sektorining iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha "Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish" sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalari (joriy narxlarda)²


² data.egov.uz sayti; link: <https://data.egov.uz/data/6113a009db32b99538e08828>



Hududlar	Davlat mulkchilik shakllari	Nodavlat mulkchilik shakllari
O'zbekiston Respublikasi	2392.3	1137
Qoraqalpog'iston Respublikasi	148.1	27.1
Andijon	165.7	79.8
Buxoro	60.9	297
Jizzax	312.4	144.6
Qashqadaryo	243.4	7.6
Navoiy	69	7.5
Namangan	115.3	34.3
Samarqand	183.4	190.4
Surxondaryo	113.5	12.9
Sirdaryo	259.3	4.3
Toshkent	198.4	257.7
Farg'ona	97.8	24.7
Xorazm	262.1	8.9
Toshkent sh.	163	40.2

Rasmiy statistikaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ushbu sohada davlat sektori investitsiyalari 2 392,3 mlrd so'mni, nodavlat sektori investitsiyalari esa 1 137 mlrd so'mni tashkil etgan. Eng yuqori davlat sektori sarmoyalari Jizzax (312,4 mlrd so'm), Xorazm (262,1mlrd so'm) va Sirdaryo (259,3mlrd so'm) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, eng katta nodavlat sarmoyalar Buxoro (297 mlrd so'm), Toshkent (257,7 mlrd so'm) va Samarqand (190,4 mlrd so'm) viloyatlarida qayd etilgan. Shuningdek, Sirdaryo (4,3 mlrd so'm) va Navoiy (7,5 mlrd so'm) viloyatlarida nodavlat sektori faolligi pastligicha qolmoqda. Bu holat mintaqalar o'rtasida ekologik infratuzilma loyihalariga investitsiya kiritish bo'yicha sezilarli tavofutlar mavjudligini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyotning ushbu rivojlanish tendensiyalari O'zbekistonda so'nggi yillarda qabul qilingan strategik dasturlar bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, "O'zbekiston Respublikasining 2019–2030-yillarga mo'ljallangan yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" mamlakatda ekologik barqarorlik, energiya samaradorligi va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirishga qaratilgan kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Mazkur strategiya asosida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yil darajasiga nisbatan 35 foizga kamaytirish, sanoat infratuzilmasini 20 foizga modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25 foizga, jumladan, quyosh va shamol energiyasining umumiy elektr ishlab chiqarishdagi ulushini 25 foiz (8 GVt) darajasiga yetkazish kabi aniq maqsadlar belgilangan.





Shuningdek, strategiyada suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, 1 million gektar maydonga tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish, ekinlar hosildorligini 20–40 foizga oshirish, hamda yer degradatsiyasi neytralligiga erishish vazifalari ham ilgari surilgan. Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining 100 foizini ishonchli elektr energiyasi bilan ta'minlash, binolarning energiya samaradorligini sertifikatlash tizimini joriy etish, hamda xalqaro standartlarga mos “yashil” xarid va investitsiya mezonlarini tatbiq etish ham ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiradi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni izchil amalga oshib bormoqda va bu mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasining asosiy yo'nalishiga aylangan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hajmining ortishi, suv va chiqindilarni boshqarish tizimlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning ko'payishi iqtisodiy hamda ekologik samaradorlikni ta'minlamoqda. Shu bilan birga, davlat va nodavlat sektorlarining bu sohadagi faolligi hududlar kesimida turlicha bo'lib, bu mintaqaviy tenglikni mustahkamlash zarurligini anglatadi. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi energiya xavfsizligini mustahkamlash, ekologik infratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Natijada, yashil iqtisodiyot O'zbekistonning uzoq muddatli barqaror rivojlanishining muhim omili sifatida shakllanmoqda.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Yormonqulova, N. I. q. (2025). *Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi*. Qo'qon Universiteti, Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası.
2. State Committee of the Republic of Uzbekistan on Statistics. (n.d.). *Investments by type of economic activity “Water supply, sewerage, waste collection and disposal” in the state-non-state sector*. Open Data Portal of the Republic of Uzbekistan. Retrieved October 19, 2025.
3. Republic of Uzbekistan. (2019, October 4). Decree No. PP-4477 “On approval of the Strategy for the transition of the Republic of Uzbekistan to a green economy for the period 2019-2030” [ПП-4477-СОД 04.10.2019]
4. Ministry of Economic Development and Poverty Reduction of the Republic of Uzbekistan, The World Bank, & The Regional Environmental Center for Central Asia. (2022). *Green growth and climate change in Uzbekistan policy dialogue series: A compendium of proceedings*. Washington, D.C.: The World Bank